Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UO'R: 811.512.133
ORCID:0009-0007-5102-1273

TERMIZ TOPONIMINING TARIXIY VA ZAMONAVIY NOMLANISHI

Majidova Shahnoza Komilovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
F.f.f.d (PhD) katta o'qituvchi
majidovashahnoza59@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Termiz so'zining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi, bu joy haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlarni lingvistik jihatdan o'rganish asosida tarixiy va geografik ma'lumotlarga tayangan holda va yerli aholining bu joy haqidagi qadimiy rivoyatlariga asoslansak, Xoja al-Hakim haqidagi rivoyatni haqiqatga yaqinroq deb aytish mumkin ekanligi haqida fikr yuritiladi.
Kalit so'zlar: Termiz, Taramastxa, Taramata, Taramat, Tami, Tamo, Tarameta, Tarmit, Tarmut, Tarmiz, Tirmiz va h.k.

ИСТОРИЧЕСКАЯ И СОВРЕМЕННАЯ НОМЕНКЛАТУРА ТОПОНИМОВ ТЕРМИЗ

Аннотация: В статье на основе лингвистического изучения легенд, распространенных в народе об этом месте, на основе историко-географических сведений и на основе древних преданий местного населения об этом месте рассматриваются вопросы происхождения слова Термез, его принадлежности к типу древних или современных топонимов, как оно именовалось в исторических и лингвистических источниках, какие фонетические изменения оно претерпело в историческом процессе, а также можно ли сказать, что легенда о Ходже ал-Хакиме ближе к истине.
Ключевые слова: Термиз, Тарамастча, Тарамата, Тарамат, Тами, Тамо, Тарамета, Тармит, Тармут, Тармиз, Тирмиз и др.

HISTORICAL AND MODERN NOMENCLATURE OF THE TERMIZ TOPONAME

Abstract: The article discusses the origin of the word Termez, its belonging to the type of ancient or modern toponyms, how it was named in historical and linguistic sources, what phonetic changes it underwent in the historical process, and whether the legend about Khoja al-Hakim can be said to be closer to the truth, based on a linguistic study of the legends spread among the people about this place, based on historical and geographical information, and based on the ancient legends of the local population about this place.
Key words: Termiz, Taramastcha, Taramata, Taramat, Tami, Tamo, Tarameta, Tarmit, Tarmut, Tarmiz, Tirmiz, etc.

KIRISH. Termiz shahri va Termiz tumani toponimlarini o'rganish jarayonida joy nomlarini to'plash, tasniflash, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilishga urinildi. Shu o'rinda bu

nomlarning zamonaviy nomlar yoki tarixiy jarayonga xos nomlar ekanligiga ham e'tibor qaratildi. Aynan Termiz so'zining shahar, tuman, mahalla, qishloq va hatto ko'cha nomi sifatida keltirilganligini hisobga olib bu nomning kelib chiqishi haqida ilmiy manbalarda va xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalarda qanday atalganigi haqida biroz fikr yuritishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida Termiz so'zining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi, bu joy haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlar haqida fikr yuritiladi. Adabiyot sifatida joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy adabiyot, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Termiz zamonaviy yoki tarixiy nom ekanligini isbotlovchi manbalarga e'tibor qaratamiz. Termiz shahri tarixda qanday nomlangan va bu joy haqida tarixiy va ilmiy dalillar nimani isbotlaydi. Qadimgi tarixiy manbalarda katta qiziqish bilan tilga olingan Termiz haqida ko'plab ilmiy fikrlar tarixchilar tomonidan o'rganilmoqda hamda yangi tarixiy ashyoviy manbalar qayd etilmoqda. Ko'hna shahar hozirgi Termizdan 8-9 km janubi-g'arbda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, qariyb 2500 yillik tarixga ega. Qadimdan Termiz Markaziy Osiyoni Xitoy-Misr bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'lida joylashgan. Yunon- Baqtriya podsholigi davrida katta madaniy bosqichni o'z boshidan kechirganligini tasdiqlovchi manbalarni qayd etish zarur. Uning toponomik kelib chiqishiga e'tibor bersak, mahalliy xalqlar baqtriyaliklar Termiz Taramastxa (baqtrcha, "narigi sohildagi manzil"), Taramata, Taramat, Tami, Tarmit, Tarmiz, Termiz kabi shakllarda uchraydi. Bundan tashqari shaharning nomi IV-V asrlardagi arman manbalarida Drmat-Darmat (ehtimol Darmit), Termiz so'zigacha mahalliy xalqlar-baqtriyaliklar taramastha, Tarameta (narigi sohil, daryoning u beti), Arman manbalarida IV-V asarlarda u "Drmat", VII asr Xitoy manbalarida "Tamo", XIV asr Xitoy manbasida "Tarmiz" va "Tirmiz", IX-XIII asr arab-fors manbasida "Termiz" va "Termiz", XII asrda tarixchi Somoniy Termiz. XIII asrda Yakut lug'atida 2 xil nom "Tarmiz" va "Tirmiz".

Qadimgi Tibet kitoblaridan birida taxoristonlik buddizm targ'ibotchisi Dxarmamitraning nomi uchraydi va uning Pak-su (Oksu-Amudaryo) daryosi bo'yida joylashgan Tarmita degan shahardan ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, shahar asoschisi-podshoh Demitriy nomi asosida Demitriy, Dermita, Darmita nomi bilan keyinchalik Tarmita, Termid, X asrdan boshlab esa Termiz nomi bilan bog'lanadi. Umuman Termiz shahrining Tara Mastha yoki Tara Maetha – narigi sohildagi shahar, yanada to'g'rirog'i daryoning narigi sohilidagi shahar, shahar nomining Yunon-Baqtriya podshohi Demetriya (Dmitrius) bilan bog'lanishlari isbotini topmaganidek, uning yunoncha "termos" so'ziga aloqadorligi ham asosli emas. Iskandar Zulqarnayn Termiz shahrini mustahkam tayanch qal'a sifatida mustahkamlab, unga "Oks bo'yi Aleksandriyasi" nomini berganligi ingliz olimi V.Tarn asarlarida qayd etilgan. Iskandar-daryo bo'yidagi bu manzilgohni mahalliy xalq g'alayonlaridan saqlanish uchun muhim harbiy istehkom shaharga aylantirish rejasi bilan uni qayta qurdiradi.

Sh.Safarovning "Termiz va termiziylar" asarida quyidagi rivoyat keltiriladi: "Bir kuni Xoja al-Hakim shogirdlarisiz masjidga namoz o'qigani keladi. U yerda bir kishiga otni ushlab turishni buyuradi. U al-Hakim namoz o'qib turgan paytida pinhona kirib, u kishining boshini kesadi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Xalq qayg'u-alamga botadi. Uni an'anaga ko'ra dafn etishadi. Kunlarning birida shogirdlari va

qarindoshlari uning qabri boshiga yig‘ilganda qabrdan “Tirik biz” degan ovoz eshitilgan emish. Shu kundan boshlab hamma halok bo‘lgan ustoz xojani “Ali al-Hakim tirikbiz”, deb ataydigan, keyinchalik shahar nomini ham” Shahri Ali al-Hakim tirikbiz” deb ataydigan bo‘lishdi.” [1. 70-71b]

Termiz shahrining nomi va uning kelib chiqishi haqida ko‘plab rivoyatlar yuradi, shu xil rivoyatlardan yana birida Balxlik mashhur shayx Dorulomon termizlik al-Hakimning g‘oyibot olami bilan bog‘lana olishdagi ruhiy quvvatini sinamoq niyatida Termizga yo‘l oladi. Dorulomon o‘z xalifa (yordamchi)si bilan suvga tushganda, buni oldindan bilgan al-Hakim Amudaryoga tushib daryoning yarmigacha borib Dorulomonni kutib oladi. Hayratda qolgan Dorulomon xalifasiga- “Bu zotni daryodan ko‘tarib o‘t” ishorasini qiladi, xalifa kar bo‘lganidan “boshini ol” deb tushunib al-Hakimning boshlarini qilich bilan kesadi. Shunda al-Hakimning kesilgan boshi tilga kirib Dorulomonga “Biz tirikmiz” debdi. Ul ulug‘ zotning qabrlariga yig‘lab borgan kishilarga “Biz tirikmiz” deb ovoz eshitilibdi, o‘shandan buyon shahar nomi tirimiz, ya’ni Tirmiz bo‘lib ketgan emish.

Boshqa bir rivoyatda Termiz so‘zi “termos” so‘zidan olinganligi aytiladi, go‘yo Aleksandr Makedonskiy jazirama issiq paytlari shaharga kelgan emish va havoning o‘ta issiqligi tufayli, bu yer xuddi termosning o‘zi ekan debdi. “Termos” so‘zining fonetik tarkibi-fonemalar miqdori hozirgi yunon va o‘zbek tillarida saqlangan. Yuz bergan tovush o‘zgarishlarini o‘zbek tilining fonetik qonunlari tasdiqlaydi. “o”ning “I”ga “s”ning “z”ga o‘tishi turkiy tillar fonetik qonuniyati me’yori talabiga mosdir. Termo-yunoncha, issiq, issiqlik, harorat, termometr-issiqlik o‘lchaydigan asbob, termografiya-issiqlikni yozib oluvchi asbob, idish, joy, makon tushunchalariga ega. [2. 117 b]

Termiz toponimini qadimgi turkiy tildagi Tarmut so‘zi bilan bog‘lash maqsadga muvofiq keladi. Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk” asarida bu so‘zni “tog‘larning tepalik va soyliklari” ma’nosida izohlaydi. [3.421 b]

Olimlardan V.L.Kozlovskiyning “Termiz shahri tarixi” (1959) 1968-yil, J.Omonturdiyev, E.Pardayevlarning “Hoja Hakim Termiziy” (Viloyat gazetasi, 1968), G.A.Pugachenkovaning “Termez. Shahrisabz. Xiva.” (1976), T.Nafasovning “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”, SH.Safarovning “Termiz va termiziylar” (1993) kitoblarida - Termiz atamasi baqtriycha, yunon-baqtriycha yoki sanskritcha Taramastha so‘zidan kelib chiqqan deyiladi. G.A.Pugachenkova o‘z tadqiqotlarida Termiz nomini sanskritcha (qadimgi hind tili) Taramata so‘zi va Yunon-Baqtriya podshosi Demetriya (Dermid-Termit-Termiz) nomi bilan bog‘laydi. Termizning qadimiy ekanligini isbotlovchi arxeologik moddiy-tarixiy ashyolar nihoyatda ko‘p manbalarni bermoqda. Termiz shahri yoshini to‘liq ilmiy o‘rganish uchun 1980-yilda O‘zFA Arxeologiya institutida Termiz tarixi va madaniyatini o‘rganish uchun maxsus arxeologik otryad tashkil etildi. Termizni arxeologik-ilmiy o‘rganishda professorlar B.P.Denike, M.Y.Masson, V.A.Shishkin, V.D.Jukov, akademiklar A.P.Okladnikov, B.B.Petrovskiy, L.I.Albaum, B.Y.Staviskiy, A.Asqarov, arxeolog olimlardan dosent SH.Pidayev, T.Annayev kabilar haqida iliq fikrlar aytish mumkin.

S.Tursunovning “Surxondaryo viloyati toponimlari” asarida ham Termiz nomining kelib chiqishi haqida bir qancha taxminlar keltiriladi. Jumladan, Termiz eramizgacha IV-III asrlarda paydo bo‘lgan. Kushonlar davrida (I-III asrlar) madaniyati taraqqiy etgan shahar bo‘lgan. Hofiz Abru esa Iskandar Zulqarnayn qurgan, deydi. Xitoy manbalarida Tami. XIX asr oxirida rus shakli Termiz-Termez-Tarmiz-Termiz Amudaryo bo‘yidagi tabiiy tik qoya, qirg‘oq bo‘yida joylashgan qo‘rg‘on. Temir kabi qattiqmiz, Temirmiz. Termiz temirdek qattiq, yoy o‘qi, o‘tkir qilich o‘tmaydigan

shahar ma'nosida izohlanishi turkiy toponimiyaga mos bo'ladi,deb keltiriladi. [4.79 b]

Temirmiz so'zida "miz", "biz" olmoshining fonetik o'zgarishga uchragan shakli deb hisoblansa, Ter shakli "temir" shaklining qisqarishi natijasida Termiz holatiga o'tgan bo'lishi mumkin.

Termiz shahri o'z tarixi davomida turli nomlar bilan atalgan. Shaharning tarixga kirgan eng qadimgi nomi Tarmid (trmd-Tarmid) bo'lgan. Bu nom dastlab 1969-yili Afg'onistonning Lag'mon vodiysidan topilgan hind podshosi Ashokaning oromiycha bitigida tilga olinadi. [5.188 b]

XULOSA. Keltirilgan ilmiy dalillar va tarixiy manbalarning ma'lumotlariga tayangan holda xulosa qilib aytish mumkinki, Termiz nomining kelib chiqishi shaharning paydo bo'lishi bilan tengdosh desak xato bo'lmaydi. Ma'lumotlar xilma-xilligiga qaramasdan Termiz nomining qaysi shakli ifodalanishidan qat'iy nazar aynan bir joy haqida Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan shahar nomi ekanligi ilmiy manbalarda isbotlangan. Toponimlarni lingvistik jihatdan o'rganish asosida tarixiy va geografik ma'lumotlarga tayangan holda va yerli aholining bu joy haqidagi qadimiy rivoyatlariga asoslansak, Xoja al-Hakim haqidagi rivoyatni haqiqatga yaqinroq deb aytish mumkin. Chunki bu rivoyatda g'ayrioddiy tuyilgan jihatlar bo'lishiga qaramasdan, xalq orasida juda ko'p variantda mavjudligi bu rivoyatda biroz bo'lsa-da haqiqat mavjudligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. Termiz va termiziylar, 70-71 b.

2. Qorayev S. O'zbek toponimlari, 1970, 117 b.

3. Mahmud Qoshg'ariy. I jild, 421-b.

4. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.

5. Tursunov S. O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi. - Termiz: Surxonnashr, 2017. 188-b.